



**O'ZBEKISTONDA YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNING MOHIYATI,
GURUHLANISHI VA ANIQLASH MEZONLARI**

Muzaffarov Dilshod Shuxratovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0004-4637-7062
ciesa0010@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini amalga oshirishning xorij tajribasi tahlil qilingan bo'lib, bu tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligini takomillashtirish masalalari, yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, yirik soliq to'lovchilar, xorij tajribasi, soliq salohiyati, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari.

**ХАРАКТЕР, ГРУППИРОВКА И КРИТЕРИИ ВЫДЕЛЕНИЯ КРУПНЫХ
НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ**

Музаффаров Дилшод Шухратович
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье проанализирован зарубежный опыт внедрения налогового администрирования для крупных налогоплательщиков, в результате которого разработаны предложения и рекомендации по вопросам совершенствования налогового законодательства Республики Узбекистан, а также по дальнейшему совершенствованию налогового администрирования для крупных налогоплательщиков.

Ключевые слова: налог, бюджетная политика, бюджет, налоговое администрирование, крупные налогоплательщики, зарубежный опыт, налоговый потенциал, налоговая нагрузка, налоговая ставка, налоговые льготы.

**THE ESSENCE, GROUPING AND CRITERIA FOR DETERMINING LARGE
TAXPAYERS IN UZBEKISTAN**

Muzaffarov Dilshod Shukhratovich
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes foreign experience in implementing tax administration for large taxpayers, and as a result of this analysis, issues of improving the tax legislation of the Republic of Uzbekistan, proposals and recommendations for further improving tax administration for large taxpayers were developed.

Keywords: tax, budget policy, budget, tax administration, large taxpayers, foreign experience, tax potential, tax burden, tax rate, tax benefits.

Kirish.

Jahondagi rivojlanayotgan va o'tish davrini kechirayotgan mamlakatlar tajribasi yirik soliq to'lovchilarning qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish ma'lum xavflarni bartaraf etib, soliq qonunchiligini oshirish va soliq ma'murchiligining yanada samarali bo'lishini ta'minlashini ko'rsatmoqda. "Pandemiya munosabati bilan ko'plab mamlakatlar soliq yig'ish eroziyasini boshdan kechirmoqda, bu iqtisodiy faoliyatning pasayishi va soliqqa rioya qilishning mumkin bo'lgan yomonlashuvini aks ettiradi. Aksariyat soliq ma'muriyatlari soliq to'lovchilar bilan deyarli yuzma-yuz aloqa o'rnatmay, masofadan ishlashga o'tishga majbur bo'ldi". Bugungi kunda yirik soliq to'lovchi majburiyatlarini baholash, soliq ma'muriyatchiligining asosiy funksiyalariga yangi axborotlashtirilgan tizimlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bunday yondashuvlarning asosiy o'zagiga qaraydigan bo'lsak, bir tomondan soliq to'lovchilarning faoliyatini davlatning moliyaviy instrumentlaridan samarali foydalanish asnosida davlatning moliya siyosatini soddalashtirishga qaratilgan bo'lsa, boshqa tomondan har qaysi davlatning bosh fiskal masalasi bo'lgan davlat budjeti daromadlarini qulay va maksimal darajada shakllantirishga qaratilgan siyosatning samaradorligiga erishishdan iborat bo'ladi. Bu esa, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalarni aniqlash, ularning faoliyatini soliqlar vositada optimal boshqarish masalalarini rivojlantirish borishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Yirik soliq to'lovchilar soliq ma'murchiligini takomillashtirish yuzasidan bir qancha olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ushbu mavzu keng miqyosdagi dolzarb tadqiqot yo'nalishi sifatida o'rganilib kelinmoqda.

Jumladan, Karataev (2011) o'z tadqiqotlarida asosiy masala sifatida yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligi tushunchalari va funksiyalarining mazmuni, yirik soliq to'lovchilarning soliq salohiyatini baholash orqali davlat budjetiga ta'siri, uning mantiqiy modeli, soliq organlarining yirik soliq to'lovchilar bilan samarali soliq munosabatlarini shakllantirishni ta'minlaydigan eng samarali soliq ma'muriyatchiligi vositalarini tanlash masalalari, yirik soliq to'lovchining soliq salohiyatini strategik tahlil qilish uslubiyoti masalalariga keng e'tibor qaratadi.

Fedorovning (2010) fikriga ko'ra, yirik soliq to'lovchilar uchun mavjud soliq imtiyozlarini tizimlashtirish lozim bo'ladi, yirik soliq to'lovchilarga berilgan mavjud soliq imtiyozlarining investitsiya jarayonlariga ta'siri ahamiyatsiz soliq orqali rag'batlantirishni kuchaytirishning uslubiy asoslari ishlab chiqqan.

Kamalnev (2009) yirik soliq to'lovchilarning faoliyatini soliqqa tortish amaliyotini bevosita gaz tarmog'i korxonalari misolida tahlil qilgan bo'lib, yirik soliq to'lovchilarining soliq ma'muriyatchiligi natijalariga baho bergan, mintaqalararo soliq xizmati organlarining nazorat faoliyati ham miqdoriy ham sifat ko'rsatkichlari asosida tahlil qilgan".

Yunak (2009) tadqiqotlarida yirik soliq to'lovchi tushunchasini belgilovchi normalar, yuridik shaxslarni belgilangan soliq to'lovchilar toifasiga tasniflash mezonlari, soliq nazorati va hisobining o'ziga xos xususiyatlari, qonunlar bilan belgilanishi lozimligi asoslagan.

Brusnisin (2012) yirik soliq to'lovchilar faoliyatiga oid soliq ma'murchiligida qo'shilgan qiymat solig'ining yukini boshqalarga o'tkazilishida soliq nazoratini o'rnatish muammolari bilan bog'liq ilmiy-amaliy tavsiyalar beradi.

Sitnikova (2012) Rossiya Federatsiyasi misolida konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchini soliqqa tortish bo'yicha amaliyotidagi kamchiliklarni aniqlangan holda bu turdagi soliq to'lovchilarni soliqqa tortish va soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish yo'nalishlarini ko'rsatib bergan.

Biroq, Vakulenko (2014), Germanova (2015), Darkina (2019) kabi olimlar yirik soliq to'lovchilar tushunchasiga ilmiy ta'rif berish bilan birgalikda ularning xususiyatlarini ochib

berishga harakat qilgan. Jumladan, Vakulenkoning (2014) ta'rificha, "yirik soliq to'lovchilar – bu ma'lum mezonlarga ko'ra eng yirik toifaga kiradigan yirik soliq to'lovchi tashkilotlardir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq imtiyozlariga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Ortodoks nazariyalarga ko'ra tadbirkorlik sub'ektlarning mazmun mohiyati, ularning xususiyatlari hamda bozordagi o'rnini aniqlash maqsadida ularning ma'lum bir mezonlarga ko'ra guruhlanish amalga oshiriladi. Bunday guruhlanishlar tarkibiga kichik korxonalar, mikrofirmalar, yakka tadbirkorlik sub'ektlari, o'rta korxonalar, yirik korxonalar, transmilliy kompaniyalar, tabiiy monopoliya korxonalari va shu kabilar. Korxonalarni bunday guruhlarga ajratilishi yoki nomlanishi ularning ko'lami asos qilib olinadi. Ko'lamiylik mezoni esa turli davlatlarda turlicha va ularni davlat tomonidan boshqarilishi ham har xil yondashuvlar mavjud bo'ladi. Jahon amaliyotida iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi yoki daromad manbaiga ega bo'lganlarga jamiyat manfaatlari uchun soliq majburiyatlari yuklatiladi. Bu kabilar zimmasiga soliq majburiyatlarining yuklatilishi esa ularga oid soliq siyosatining o'ziga xos yo'nalishlari ham yuzaga keladi. Soliqlarni undirish jarayoni ko'plab munosabatlarni keltirib chiqaradi. Soliqlar iqtisodiy munosabatlardan tashqari sotsial, psixologik, huquqiy, tashqi iqtisodiy va hatto siyosiy munosabatlarni qamrab oladi. Soliqlar bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar, avvalo, soliq to'lovchilar va budjet tizimiga kiruvchi budjetlar o'rtasida soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bilan bog'liq o'zaro munosabatlarni qamrab oladi. Bu jarayonda esa ikki tomon yuzaga keladi. Biri budjet manfaatlarini ko'zlagan holda uni undirish bilan bevosita shug'ullanuvchi hamda ushbu jarayonda xizmat qiluvchi davlatning vakolatli organlari, boshqasi esa soliq to'lovchilar sifatida ishtirok etadi. Soliq sub'ektlarida asosiy tomon soliq to'lovchilar hisoblanadi. Chunki soliq to'lovchilar soliqlarni joriy etish ob'ekti bo'lib, soliq to'lovchilar mavjud bo'lgan taqdirdagina soliq ob'ekti paydo bo'ladi va soliq elementlarini qo'llash imkoniyati tug'iladi.

Keltirilgan 1-rasmdan ko'rish mumkinki, soliq to'lovchilar soliq munosabatlarini keltirib chiqaruvchi muhim zvenosi hisoblanadi. Soliq to'lovchi tushunchasi esa, soliq majburiyati bilan uzviy bog'lanadi.

Soliq to'lovchilarni guruhlashda yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilishi bilan bir qatorda soliq to'lovchilarning tashkiliy-huquqiy shakliga ham bog'liq bo'ladi. Soliq to'lovchilar huquqiy maqomi jihatidan yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, notijorat tashkilotlari, doimiy muassasa, yakka tartibdagi tadbirkorlar, rezident va norezidentlarga ajratiladi. Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxslar Soliq kodeksining 32-moddasi va fuqarolik Kodeksining 39-moddasiga ko'ra o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Shuningdek, yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak. Shu bilan birgalikda yuridik shaxslar jumlasiga chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti va O'zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonun hujjatlariga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkilotlari ham kiritiladi. Notijorat tashkilotlari deganda foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushunilib, ularga budjet tashkilotlari, shu jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro

nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar kiradi.



1-rasm. Soliq to'lovchilarning guruhlanishi

Manba: rasm muallif tomonidan tuzilgan.

Soliq qonunchiligiga ko'ra yuridik shaxslar sifatida: O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar (O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari); chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, fuqarolik huquqiy layoqatiga ega bo'lgan chet el yuridik shaxslari (shu jumladan, kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalar); xalqaro tashkilotlar tan olinadi. Yuridik shaxsning hududiy jihatdan alohida bo'lgan, turgan yeri bo'yicha doimiy ish joylari jihozlangan har qanday bo'linmasi O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsining alohida bo'linmasidir. Yuridik shaxsning alohida bo'linmasini e'tirof etish, unga qanday vakolatlar berilganligidan va uning tashkil etilishi bo'yicha yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida yoki boshqa tashkiliy-boshqaruv hujjatlarida aks ettirilganligi yoki aks ettirilmaganligidan qat'iy nazar amalga oshiriladi. Agar ish joyi bir oydan ortiq muddatga yaratilgan bo'lsa, u doimiy hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi alohida bo'linmasining joylashgan yeri ushbu yuridik shaxs mazkur alohida bo'linma orqali faoliyat olib boradigan joydir.

Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda norezident O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan, faoliyatni vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e'tirof etiladi. Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi O'zbekiston Respublikasi hududida har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida bir yuz sakson uch kalendar kunidan ortiq davom etadigan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi ham e'tirof etiladi. "Doimiy muassasa" tushunchasi faqat soliq sohasidagi maqomni aniqlash uchun qo'llanilib, u

huquqiy jihatdan tashkiliy-huquqiy ahamiyatga ega hisoblanmaydi. Ya'ni u soliq solish ob'ektlarini ham o'zida aks ettiradi.

Soliq solish maqsadlarida chet el yuridik shaxsi O'zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlik faoliyatini to'liq yoki qisman qaysi doimiy faoliyat joyida amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha joy chet el yuridik shaxsining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchilarning keyingi guruhi jismoniy shaxslar sifatida yuzaga chiqadi. Jismoniy shaxslar deganda esa O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Ushbu guruhga kiruvchi soliq to'lovchilar toifasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar ham kirib, ularga tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqsiz, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar kiradi.

Shu bilan birgalikda soliq to'lovchilar guruhlaganda ularning yuzaga kelishi, soliq to'lashni amalga oshirishi hamda soliq to'lovchilar bo'yicha soliq potensialni aniqlash maqsadida real va potensial soliq to'lovchilarga, soliq to'lovchilarning soliqlar to'lash holati yuzasidan ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilar, faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchilar, faoliyatini to'xtatgan soliq to'lovchilar hamda soliq majburiyatlari tugagan(boshlangan) soliq to'lovchilarga ajratiladi. Real soliq to'lovchilar bu amalda faoliyat ko'rsatib turgan va soliq to'lash majburiyatini amalda bajarayotgan soliq to'lovchilar tushunilsa, potensial soliq to'lovchilar esa yaqin kelajakda soliq to'lovchilar sifatida yuzaga kelishi kutilayotgan (soliq imtiyozi davri tugaydigan soliq to'lovchilar, layoqatli yoshga to'lib mehnat bozoriga kiradigan jismoniy shaxslar, yangidan tashkil etiladigan soliq to'lovchilar va sh.) soliq to'lovchilar nazarda tutiladi. Soliq to'lovchilarni bunday tartibda guruhlash esa soliq tizimida soliq tizimining samaradorligini tahlil qilishda katta ahamiyatga egadir.

Soliq to'lovchilarni ma'lum bir mezonlarga ajratish soliq to'lovchilarga nisbatan soliq ma'murchiligini tashkil etish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan olaylik 1997-yildan boshlab kichik biznes sub'ektlarini milliy iqtisodiyotdagi rolini oshirish maqsadida respublikamizda ularni soliqqa tortishning alohida tartibi, ya'ni soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi qo'llanib kelindi. Unga ko'ra bu kabi korxonalarga soliq imtiyozlari va preferensiyalar qo'llash maqsadida bir necha soliqlar o'rniga bitta yagona soliq to'lash imkoniyati va soddalashtirilgan tartibni yoki umumbelgilangan tartibni qo'llashning ixtiyoriyligi berilgan edi. Soliq to'lovchilarni bunday guruhlash bir tomondan soliq to'lovchilarni soliqqa tortishda alohida yondashuv orqali ularni rag'batlantirish bo'lsa, boshqa tomondan ularga nisbatan alohida soliq ma'murchiligini qo'llash asosida soliqqa tortish tizimi tartibga solib boriladi.

Soliq to'lovchilarni soliq to'lash maqomiga ko'ra, konsolidatsiyalashgan guruhga kiruvchi soliq to'lovchilar, kontragen guruhlar va yirik soliq to'lovchilar qatoriga kiritish mumkin. Bundan tashqari donor soliq to'lovchilar guruhi va yirik soliq to'lovchilarni farqlash kerak bo'ladi. Donor soliq to'lovchilar o'z imkoniyatlariga ko'ra, ularga yuklatilgan soliq majburiyatlarini bajarish doirasida katta miqdordagi soliq to'lovlarini to'lash orqali tegishli budjetga soliq to'lovlari bo'yicha boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan keskin ajralib turishi orqali ular "donor" maqomini oladi. Bunday soliq to'lovchilar ko'pincha, yirik soliq to'lovchilar toifasiga ham kiradi. Masalan, bunday soliq to'lovchilar qatoriga "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ, "O'ztransgaz" AJ, "O'zbekneftgaz" AJ, "O'ZBAT" AJ QK, "Lukoil" "O'zavto Motors" AJ, "O'zbektelekom" AJ, "Hududgazta'minot" AJ kabilarni kiritish mumkin.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotida yirik soliq to'lovchi maqomiga ega bo'lgan korxonalar mavjud bo'lgan. Ammo, 2017-yilgacha bo'lgan soliq ma'murchiligida ularni alohida maqom sifatida ajratgan holda ularga nisbatan mansub soliq ma'murchiligi shakllantirilmagan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalarni soliqqa tortish

haqida gap ketganda ular bilan bog'liq soliq menejmenti va soliq ma'murchiligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Soliq tizimi normal holatda amal qilishi uchun bu jarayonni tashkil qilish, uni boshqarishning mexanizmlarini yaratish, soliqlarni budjetga jalb qilish va ularni undirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni bartaraf etish, davlatning joriy etilgan soliqlarni undirish borasidagi faoliyatining funksional xususiyatlarini aniqlash, soliq to'lovchilarga nisbatan munosabatlarning umumiy va aniq yondashuvlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va bu jarayonda boshqaruv tamoyillarini ishlab chiqish, soliq to'lovchilarning madaniyati, ularning soliq siyosatiga nisbatan munosabatlarini baholash, davlat budjetiga solikli daromadlarning kelib tushish jarayonlarini ilmiy asosda amalga oshirish (soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirish), soliq tizimining turli bosqichlari va elementlarida yuzaga keladigan turli darajadagi tavakkalchiliklarni baholash va ularning salbiy ta'sirini kamaytirish va shu kabi muhim jarayonlar borki, bularni e'tiborga olmasdan soliq tizimining samarali ishlashini tashkil etish amri maholdir. Bu jarayonlar esa soliq tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq menejmentiga bo'lgan ehtiyojni va uning amal qilishini taqozo etadi.

Soliq sohasidagi boshqaruv jarayonlarining zamonaviy shakli sifatida soliq menejmenti ham o'z ob'ekti, sub'ekti, bosqichlari va xususiyatlariga egadir. Soliq menejmenti deganda davlatning soliq tizimiga kiruvchi elementlarning holati, harakati, ularning o'zaro aloqasi, shuningdek, soliqqa tortish maqsadida to'lovchilar faoliyatiga davlat tomonidan aralashuvi (tartiblash, rag'batlantirish, nazorat qilish)ga oid munosabatlarni umumiy maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarishga oid ilmiy asoslangan faoliyat va jarayon tushuniladi. Soliq menejmenti, avvalo, soliq tizimiga kiruvchi elementlarning o'zini boshqarish hamda ushbu elementlar bilan bog'liq soliq to'lovchilar faoliyatini boshqarish makonlarini qamrab oladi. Shu jihatdan soliq menejmentining ikki tomonini ko'rish mumkin. Davlatning soliq menejmenti davlatning soliqlarni joriy etish va undirish bilan bog'liq o'zining bu boradagi faoliyatini (vakolatli organlar faoliyatini) boshqarish hamda davlatga soliq to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslarning soliq to'lash bilan bog'liq faoliyatini boshqarish (muvofiqlashtirish) soliq menejmentining qo'llanish chegarasini aniqlab beradi. Soliq menejmenti shu boisdan ham ko'lami jihatidan makro va mikro darajadagi soliq menejmentiga bo'linadi. Makrodarajagi soliq menejmenti davlatning vakolatli organlarining faoliyatining bir qismi hisoblanadi. Davlat o'zining markazlashtirilgan pul fondlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirar ekan, bu bilan bog'liq keng qamrovli faoliyatni tashkil etish, uni optimal boshqarish va muvofiqlashtirib turishi talab etiladi.

O'zining soliq siyosati orqali soliqlarni joriy etishi, ularning undirish mexanizmlari va ularni takomillashtirish bilan bog'liq faoliyatini yo'lga qo'yishidan tashqari, soliqlar bilan bog'liq boshqa yana bir qator munosabatlar tizimi ham yuzaga chiqadiki, ularning yagona maqsad yo'lida boshqarish va muvofiqlashtirishni talab qiladi. Soliq menejmenti esa soliq siyosatidan ham kengroq tarzdagi munosabatlarni qamrab oladi. Davlat makroiqtisodiy soliq menejmenti doirasida bevosita soliq tizimining faoliyatini boshqarish bilan birgalikda soliq xizmati organlarining boshqa vakolatli organlar bilan soliq to'lovchilar va soliq ob'ektlarini ro'yxatga olish, soliq tushumlarni hisobga olish, soliqlarning budjetga jamlanishi va soliqlarning budjetlar o'rtasida taqsimlanishi, soliqqa oid majburiyatlarning yuzaga kelishi, soliqqa oid qonunbuzilishlar bo'yicha javobgarlik choralari belgilash va javobgarlikka tortish, soliq tizimi hamda soliq to'lovchilar faoliyatini tadqiq etish, soliq to'lovchilarning psixologik holati va soliq tizimiga oid mulohazalarini aniqlashga oid jarayonlar va bularni amalga oshiruvchi soliq xizmati organlaridan tashqari boshqa organlarning bu bilan bog'liq munosabatlarni tartiblaydi, boshqaradi va muvofiqlashtiradi.

Soliq ma'murchiligi jarayoni o'ziga xos tarkibga va tuzilishga ega bo'lib, u turli-tuman faoliyatlarni (huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy) qamrab oladi. Soliq tizimining qanchalik

samarali ishlashi ko'pincha soliq ma'murchiligining samarali tashkil etilishi va amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi. Soliq menejmentining eng muhim elementini soliq ma'murchiligi tashkil etadi. Qayd etish joizki, soliq ma'murchiligi tushunchasi bu zamonaviy tushuncha sifatida soliq jarayonini tashkil etish va boshqarish munosabatlari tushunchasining sinonimi sifatida kirib keldi.

Soliq ma'murchiligida ham juda ko'p yondashuvlar mavjud. Soliq ma'murchiligi aslida soliqlarni undirish vakolati yuklatilgan davlat organlarining faoliyatini qamrab olib, bu faoliyat o'zlarining huquq va burchlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni budjetga jalb qilishi bilan bog'liq tashkiliy-uslubiy jarayonlarni, soliq undirishga xizmat qiluvchi va soliq to'lovchilar bilan soliqlarni undirish borasidagi keng qamrovli o'zaro manfaatga asoslangan faoliyatlarning tizimli ravishda boshqarilishi va muvofiqlashtirish munosabatlarini qamrab oladi.

Qayd etish joizki, O'zbekiston soliq tizimida yirik soliq to'lovchilarga oid soliq ma'murchiligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-sonli Farmonida alohida belgilab berildi. Ushbu farmonda Yangi O'zbekiston soliq tizimining muhim muammolari bilan birgalikda milliy soliq tizimida soliq ma'murchiligini tubdan takomillashtirishning muhim yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi. Unga ko'ra, "soliq ma'muriyatchiligi va nazoratini tashkil etish tartibi hamda metodologiyasini tubdan takomillashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va jismoniy shaxslarning soliq yukini yanada kamaytirish, bir xil soliq solish ob'ektlariga ega bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni birlashtirish, soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash uchun qo'shimcha mezon (oborotning chegaraviy miqdori) joriy etishni va ushbu miqdor oshgan korxonaga, kichik tadbirkorlik sub'ekti maqomini saqlab qolgan holda, qo'shimcha soliq majburiyatlarini belgilash, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni "yirik soliq to'lovchilar" toifasiga kiritish mezonlarini belgilash" (www.lex.uz, 2017) kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi hamda yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi soliq to'lovchilarga nisbatan alohida soliq ma'murchiligi shakllantirila boshlandi, shu bilan bir qatorda uning huquqiy asoslari shakllantirila boshlandi.

O'zbekiston soliq tizimida soliq majburiyati yuklatilgan soliq to'lovchilarga yirik soliq to'lovchi sifatida alohida ajratilib, ularga o'ziga xos soliqqa tortish mexanizmi va soliq ma'murchiligida ularning mahsulot sotishdan tushgan tushumning hajmi, aniq soliq to'lovchilar, milliy iqtisodiyot uchun muhim bo'lgan va rentabelli faoliyat bilan shug'ullanishi kabi mezonlar asosiy mezon sifatida belgilab olingan.

Yirik soliq to'lovchilarni soliqlarning adolatlilik tamoyili asosida soliqqa tortish masalasi, bir tomondan jahon mamlakatlarining soliq siyosatida ustuvor masalalar sifatida qaralishga oid yondashuvlar kuchayib borayotgan bo'lsa, o'z navbatida bu turdagi soliq to'lovchilarni soliqqa tortish va ularga nisbatan soliq ma'murchiligini amalga oshirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlari ham keng olib borilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Tekshiruv harakatlarini yuqori xavfli hududlarga va potentsial nomuvofiqliklarga yo'naltirish uchun xavfga asoslangan yondashuvni amalga oshiring. Bu soliq to'lashdan bo'yin tovlash yoki rioya qilmaslik ehtimoli yuqori bo'lgan hududlarni aniqlash uchun ma'lumotlar tahlili, ilg'or texnologiyalar va keng qamrovli xavflarni baholash modellaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv soliq organlariga tekshirish resurslarini samarali va samarali taqsimlash imkonini beradi.

Soliq organlari va boshqa tegishli davlat organlari, masalan, moliya institutlari, bojxona organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar reyestrlari o'rtasida uzluksiz ma'lumotlar almashinuvi va hamkorligiga ko'maklashish. Ushbu ma'lumot almashinuvi soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyati, operatsiyalari va aktivlarini yaxlit ko'rish imkonini beradi, xavflarni baholash va maqsadli tekshiruvlar uchun qimmatli tushunchalarni beradi.

Yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovlash va agressiv soliq rejalashtirishga qarshi kurashish uchun xalqaro soliq organlari bilan hamkorlik va axborot almashishni kuchaytirish. Soliq bilan bog'liq ma'lumotlar, shu jumladan transfer narxlar bo'yicha hujjatlar almashinuvi soliqdan qochishning mumkin bo'lgan sxemalarini aniqlashga va chegaralar bo'ylab adolatli soliqqa tortishni ta'minlashga yordam beradi.

Katta hajmdagi soliq to'lovchilar ma'lumotlarini tahlil qilish, qoidabuzarlik holatlarini aniqlash va potentsial soliq risklarini aniqlash uchun ilg'or tahliliy vositalar va texnologik yechimlardan foydalaning. Ma'lumotlarni qidirish, mashinani o'rganish va sun'iy intellekt soliq tekshiruvlarining samaradorligi va samaradorligini oshirishi mumkin, bu esa soliq organlariga talablarga javob bermaydigan xatti-harakatlarni aniqlash va zudlik bilan tegishli choralarni ko'rish imkonini beradi.

Yirik soliq to'lovchilar uchun ularning huquq va majburiyatlari, soliq tekshiruvi jarayonlari va soliq organlaridan kutilayotgan talablar bo'yicha aniq va shaffof yo'riqnomalarni taqdim etish. Soliq qonunlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va tekshirish tartib-qoidalarining aniq bayon etilishi soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida hamkorlik muhitini ta'minlaydi, nizolarni kamaytiradi va ixtiyoriy rioya qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Soliq kodeksi (2020) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

www.lex.uz (2017) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги "Солиқ маъмуриятчилигини тубдан такомиллаштириш, солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг йиғилувчанлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5116-сонли Фармони.

Брусницын Сергей Валентинович (2012). Совершенствование механизма налогового контроля по НДС: становление и тенденции развития в системе налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва. с.7-11.

Вакуленко К.Э. (2014) Крупнейшие налогоплательщики как вид усиленного контроля налоговых органов. Журнал. Бухгалтерский учет, статистика. № 9 (37).

Германова М.А. (2015) Эволюция правового регулирования отношений с участием крупнейших налогоплательщиков. Бизнес в законе 4.

Дарькина Ю.А. (2019) Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. Interactive science. 3 (37).

Камалнев Тимур Шамильевич (2009). Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва.

Каратаев Алексей Сергеевич (2011). Концепция налогового салохията крупнейших налогоплательщиков и методология его оценки. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктор экономических наук. Йошкар-Ола.

Ситникова Ольга Владимировна (2012). Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва.

Федоров Андрей Николаевич (2010). Налоговое администрирование и стимулирование инвестиционной активности крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Нижний Новгород.

Юнак, А.А. (2009) Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат юридических наук. Москва.